

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIIY-IQTISODIY FAKUL'TETI

205-GURUX TALABASI

MIRZAABDULLAYEVA MOXIDANING

«JAHON TARIXI » FANIDAN TAYYORLAGAN

REFERATI

MAVZU: MAVZU: QADIMGI XITOIY

TOPSHIRDI :
QABUL QILDI :

M.MIRZAABDULLAYEVA
A.TO'XTABAYEV

MAVZU: QADIMGI XITOI

REJA:

Kirish:

1. Qadimgi Xitoy geografik joylashuvi, tabiiy sharoiti, aholisi va manbalar.
2. Qadimgi Xitoyda ilk davrlarlar: Shan (In) va Chjou davlat birlashmalari.
3. Qadimgi Sin va Xan davlatlari.
4. Qadimgi Xitoy madaniyati.

Xulosa

KIRSH

Bizga ma'lumki har bir davlatni, har bir xalqni o'ziga yarasha tarixi, madaniyati, mentaliteti bor. Biz tarixni o'rganar ekanmiz undan o'zimizga tegishli xulosa va saboqlar chiqarishimiz darkor.

El-yurtimiz o'zining ko'p asrlik tarixi davomida ma'shum xatarlarni bir necha bor ko'rgan, ularning jabrini tortgan. Shunday asoratlarni tufayli tilimiz, dinimiz va ma'naviyatimiz bir paytlar qanday xavf ostida qolganini barchamiz yaxshi bilamiz. Ana shu fojiali o'tmish, bosib o'tgan mashaqqatli yo'limiz barchamizga saboq bo'lishi, bugungi voqealikni teran taxlil qilib, mavjud taxdidlarga nisbatan doimo ogoh bo'lib yashashga davit etishi lozim. O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunni unutgan millatning kelajagi yo'q. Bu haqiqat kishilik tarixida ko'p bora o'z isbotini topgan.¹

Qadimgi Sharq madaniyati, davlat tuzumini rivojlanishida ham qadimgi Xitoy alohida o'ringa egadir. Biz yosh avlad bu davlatni kashfiyot va yutuqlaridan oqilona foydalanish, undan hayot faoliyati davomida o'zimizga kerakligini olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. U qilgan kamchiliklar va nuqsonlarni takrorlamaslik darkor.

¹ Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.– Б. 4.

1. QADIMGI XITOIY TABIIY SHAROITI.

Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasi eramizdan avvalgi V-III ming yilliklarda Xuanxe daryosining o'rta oqimida uzoq vaqt yopiq holda shakllanadi. Er. avv. I ming yillik o'rtalaridan boshlab Yanszi daryosi havzasini ham qamrab oladi.

Xuanxe daryosi havzasi qadimda qalin o'rmonlar bilan qoplangan. Eramizdan avvalgi IV-II ming yilliklarda Xuanxening o'rta oqimlarida karkidon, tapir, bambuq kalamushlari yashagan, bambuk daraxti o'sgan. Vodiyning yumshoq allyuvial tuprog'i dehqonchilik uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Qadimgi Xitoy asosan, mo'tadil va subtropik mintaqalarda (jan. qismida kichikroq hudud tropik mintaqada) joylashgan. Tabiati jihatidan Sharqiy Osiyoda joylashgan sharqiy va Markaziy Osiyoda joylashgan g'arbiy qismlarga bo'lingan. Mamlakatning sharqi dengiz bo'yi pasttekisliklari, past va o'rtacha balandlikdagi tog'lar bilan band. G'arbi esa baland tog'lik, kata tizmalar, keng yassitog'lik va botiqlardan iborat. Qirg'oq chizig'ining uzunligi 15 ming km chamasida. Kichik qo'ltiq va buxta ko'p. Yirik yarimorollari: Shandun va Lyaodun.

Xitoy- murakkab orografiyaga ega bo'lgan tog'li o'lka. Mamlakatning jan.g'arbida Tibet tog'ligi, undan shimolroqda Markaziy Osiyo tekisliklari va yassitog'liklar mintaqalari va atrofi tog'lar bilan o'ralgan Sharqiy Xitoy pasttekisliklari yaqqol ajralib turadi. Tibet tog'ligi Xitoyning eng baland qismidir (o'rtacha bal. 4500 m ga yaqin).

Markaziy Osiyo tekisliklari va yassitog'liklari g'arbda bir-biridan Sharqiy Tyaninan tog'lari bilan ajralgan Hashqar tekisligi va Jung'ariya tekisligishsh o'z ichiga oladi. Ularga jan.sharqdan Turfon soyligi (tubi dengiz sathidan 154 m past) tutashgan. Sharqroqda esa Gashun Gobisi, Alashan va Ordos plato va tekisliklari, ular orasida Beyshan, Alashan va Inshan tog'lari joylashgan. Sharqiy Xitoy pasttekisliklari, asosan, Sariq dengiz sohili bo'ylab shimoldan jannubga cho'zilgan va tog' tizmalari bilan o'ralgan.

Xitoyda foydali qazilmalardan toshko'mir va yonuvchi slanets, neft, temir va marganets rudalari, boksit, qalay, volfram, simob, mis va polimetall rudalari, oltin, toshtuz konlari bor².

Iqlimi g'arbda kontinental, sharkda, asosan, mussonli. Mavsumlar davomida havo trasining farqi katta. Yanvarning o'rtacha temperaturasi Xarbinda —20,4°, Pekinda —4,6°, iyulniki xuddi shu joylarda 23° va 26°. Yillik yog'in Sharqiy Xitoyda 500—2000 mm (ko'p qismi yozda yog'adi). G'arb va shim.g'arbga tomon iqlimning kontinentalligi ortib boradi. Yoz issiq (Turfon botig'ida iyulning o'rtacha temperaturaasi 34°), qishi sovuq. Yanvarning o'rtacha temperaturasi Xitoy shimolida (Xaylar) — 28°, g'arbida (Urumchi) — 14,9°. Yillik yog'in 250 mm dan kam, Qashqar tekisligi va Saydamda 50 mm dan kam. Tibet tog'ligida kish juda sovuq, yozi esa salqin. Gartokda (Hind daryosining yuqori qismi) yanvarning o'rtacha temperaturasi — 11,8°, iyulniki 11,8°. Temperaturaning sutka davomidagi farqi katta. Kuchli shamollar esadi. Baland tog'larida muzliklar bor, lekin yog'in kamligidan ularning maydoni katta emas (100 ming km² chamasida).

Tuproqlari mamlakatning sharqiy qismida chimli podzol, qo'ng'iro'rmon, sariqqigarrang, sariq va har xil qizil tuproklar, daryo vodiylarida esa allyuvial tuproqlar tarqalgan. Dengiz sohillarida sho'rlangan tuproklar uchraydi. G'arbiy qismining tuprog'i cho'lga xos kashtan, qo'ng'ir, sur tusli qo'ng'ir tuproqlar, tog' oldi tekisliklari va tog'larda bo'z, tog'kashtan va tog'o'tloq, Tibet tog'ligida esa sovuq cho'lga xos tuproklar.

Xitoy hududida daryo ko'p. Mamlakat sharqidagi daryolar sersuv va ularda kema qatnaydi. Yiriklari — Yanszi, Xuanxe, Sungari, Chjutszyan. Mekong, Saluin, Braxmaputra daryolarining bir qismi ham XITOYdan oqib o'tadi. XITOY g'arbida daryolar kamsuvli, ayrimlari yozda qurib qoladi. Ularning yiriklari — Yorkend va Oqsuv. Ko'l ko'p; asosiylari — Kukunor, Duntinxu, Poyanxu.

Xitoyning sharqiy qismida juda xilma-xil (25 mingdan ziyod) o'simlik turi mavjud. U yerda aholi qadimdan zich yashaganligidan o'rmon, asosan, tog'li yerlarda qolgan. Pasttekisliklarning hammasi ekinzor va bog'. Yanszi daryosi quyi oqimidan janubda doim yashil subtropik, eng jan.da tropik o'rmon va mangra chakalakzorlari mavjud. Xitoyning g'arbiy qismida yuksak o'simliklarning turi 5 mingdan oshadi. Xingan tog'lari etagidagi dashtlarda boshqoli o'tlar, Tibet tog'ligidagi cho'llarda o't va butalar o'sadi. Tog' vodiylari subalp o'tloqlari va o'rmonli dashtdan iborat.

² O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. – Toshkent: Sharq, 2000-2004. – B. 127-132.

Hayvonot dunyosi boy va xilma-xil. Umurtqalilarning 3500 turi (shundan 400 turga yaqini sut emizuvchilar) va qushlarning 1000 dan ziyod turi bor. Xitoyning janubi va janubi-g'arbida tropik mintaqaga xos hayvonlardan har xil maymunlar, lemur, lori, karkidon, tapir, yo'lbars; sharqida uchqir, mangust, qoplon va h.k. uchraydi. Xitoyning shimol-sharqida Sibir tayga faunasiga xos hayvonlar, cho'llarda ot, qulon, jayran, ikki o'rkachli tuya, yumronqoziq, dasht va tog' dashtida kiyik, qumsichqon, yovvoyi qo'y, echki, turli yirtqich va sudralib yuruvchilar yashaydi. Bir necha ko'rikxonalar bor.³

Qadimgi Xitoy aholisi. Er. avv. IV-III ming yilliklarda Xuanxe havzasida Yanshao madaniyatini bu yerda yashagan poliosiyoholisini siqib chiqargan protosinotibetliklar yaratadilar. Er. avv. I ming yillikda Xuanxening o'rta oqimida inlar va chjoularning o'zaro ta'siri natijasida qadimgi Xitoy etnosi vujudga keladi. Bu etnosning shakllanishida shimolda poliosiyoholis va avstroosiyo janubiy Osiyo tillarida so'zlashuvchi etnoslar ishtirok etadilar.

Hozirgi kunda Xitoy — ko'p millatli davlat. Jami aholining 95% i xitoylar; qolgan qismi turli til guruhi va oilalariga mansub bo'lgan 56 xalqdan iborat. Xitoylarning ko'pi mamlakatning sharqiy qismida yashaydi. Xueylar (7 mln.ga yaqin) ham xitoy tilida suzlashadi. Xitoyning shimoli-g'arbida turkiy tillar guruhiga mansub xalqlar — uyg'urlar, qozoqlar, qirg'izlar, salorlar va boshqalar, shimol va shimol-sharqidagi dasht va chala cho'llarda mongol guruhiga kiruvchi xalqlardan mongollar, dunsyanlar, tular, shimol-sharqida tungus-manjur xalqlari, g'arbi (Tibet) va janubi-g'arbida tibet-birma xalqlari, janubda tay tillarida so'zlashuvchi xalqlar va boshqalar yashaydi. Sintszyanning janubi-g'arbida pomir tojiklari xam bor.⁴

Dindor xitoylar buddizm (shimoliy Tarmog'i), daosizm va konfutsiychilikka e'tiqod qiladi. Tibetlar va mongollarning dini — buddizmlamaizm. Xueylar va turkiy guruhga kiruvchi xalqlarning ko'pchiligi islom dinining sunniylik mazhabiga e'tiqod qiladi (pomir tojiklari ismoiliya mazhabida).⁵

Qadimgi Xitoy haqida manbalar. Qadimgi Xitoy tarixiga oid juda ko'p aniq davrlashtirilgan yozma yodgorliklar mavjud. Bu bizgacha kitob holida yetib kelgan tarixiy asarlardir.

Yozma manbalar ichida qadimgi Xitoy yilnomalari eng avvalo Lu podsholigi davrida tuzilgan er. avv. VIII-V asrlar voqealari yoritilgan «Chunsyu» yilnomasi muhim ahamiyatga ega. «Chunsyu» matni bilan an'anaviy ravishda uning muallifi qadimgi Xitoy faylasufi Konfutsiya nomi bog'lanadi.

Yilnomalar bilan yaqin bog'langan eng avvalo, «Shan-shu» («Shiszin»-qo'shiqlar kitobi) nomli kitob va boshqa qadimgi Xitoy tarixiy asarlari janridir. Bu asarlarda hukmdorlar va ularning yaqinlarining so'zlari mavjud. Bizgacha yetib kelgan «Shan-shu» matni qismlarigina haqiqiy deb hisoblash mumkin. Chunki bu manbaning ba'zi boblari keyingi davrlarga oid.

Eramizdan avvalgi I asrda qadimgi Xitoyda yangi tarixiy asarlar paydo bo'ldi. Bu asarlar Xitoy tarixnavisligida katta o'rin tutadi. Ana shunday asarlardan biri Sima Syanning (er. avv. 105-90 yillar) «Tarixiy yozishmalar»i edi. Bu asar qadimgi Xitoy ijtimoiy-siyosiy va madaniy xayoti to'g'risida boy ma'lumotlar beradi. Sima Syan tarixiy voqealarni bayon qilishda kishilar faoliyatini bayon qilish usulini tanlaydi.

Sima Syanning tarixnavislik usulidan «Xan tarixi» muallifi Gu Garbiy Xan (er. avv. 206 yil) sulolasining tarixini yozishda foydalanadi. Ban Gu Xitoy tarixnavisligining yangi «sulolalar tarixi» nomini olgan janr asoschisi bo'lgan.

Xitoy tarixini arxeologik o'rganishda amalga oshirilgan ishlar muhim ahamiyatga ega. Arxeologik qazishmalar natijasida ilk Shan davriga oid Ermitou shahri, Chansha yaqinida boy qabrlar (er. avv. III asr) topilgan.

An'anaviy Xitoy tarixnavisligida ikki o'ziga xos xususiyat:

- Xitoy madaniyatining boshqa qo'shni madaniyatlardan ustunligi;
- Xitoy davlatchiligini kelib chiqishini afsonalarga boglab o'ta qadimiylashtirish ajralib turadi.

Xitoy tarixini o'rganishni o'rta asrlarda Yapon olimlari boshlab berdilar. Yaponiyada Xitoy tarixini barcha davrlari o'rganildi. Mashhur xitoyshunos olim Kaydzuka Sigeki Qadimgi Xitoy davlatlarini shakllanishiga oid kapital tadqiqotlar muallifi hisoblanadi.

³ www.ziyounet.uz

⁴ O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. – Toshkent, Sharq, 2000-2004. – B. 127-132

⁵ Ashirov.A. Etnologiya. –T.: Yangi Nashr, 2014. – B.335.

Yevropada Xitoy tarixini o'rganishda fransuz tadqiqotchilari katta yutuqqa erishdilar. XX asr boshlarida E. Shavann «Sima Syanning «Tarixiy yozishmalar»»ni tarjima qila boshladi. Mashhur sharqshunos olim fransuz A. Maspero «Qadimgi Xitoy» nomli kapital asarini yaratdi.

AQShda XX asrning 60-yillari oxirida «Qadimgi Xitoy tarixini o'rganish» xalqaro jamiyati tashkil topdi. AQShda Xitoy tarixini kelib chiqishi Xitoydan bo'lgan olimlar o'rganadi.

2. ILK DAVLATLAR.

An'anaviy Xitoy tarixnavisligi fanida Xitoy tarixini sulolalar bo'yicha davrlashtirish xarakterlidir. Shunga ko'ra, afsonaviy «besh imperatorlar» davridan so'ng, «uch sulola» Sya, Shan-In va Chjou davrlari boshlandi. An'ana bo'yicha Chjou davri Chunsyu va Chjango davrlarini o'z ichiga olgan ikki qism G'arbiy Chjou (er.avv XI-VIII asrlar) va Sharqiy Chjou (er.avv VIII-III asrlar) ga bo'linadi. Sin sulolasi (er.avv. III asr) o'rniga hukmronlik vaqti g'arbiy va sharqiy davrlarga bo'linadigan Xan sulolasi keladi. Sulolaviy davrlashtirish hozirgi tadqiqot talablariga javob bermaydi. Shu sababli jamiyat taraqqiyotini ishlab chiqarish kuchlari va mehnat qurollari, tayyorlangan asosiy buyumlar bo'yicha jamiyat taraqqiyotini bosqichlarga bo'ladigan arxeologik davrlashtirishdan foydalanamiz. Demak, Xitoyda «uch sulola»dan oldingi davr neolit davriga to'g'ri keladi. Shan-In davrida qadimgi Xitoy jamiyati jez davriga kiradi. Chun-syu davri (er.avv. VI-V asrlar) oxirida qadimgi Xitoyda temir davri boshlanadi.⁶

Qadimgi Xitoy tarixini jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti mezonini asosida qo'yidagi davrlashtirishni ko'rish mumkin:

1. Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi va ilk davlatlarning vujudga kelishi. (er. avv. II ming yillik)

2. Er. avv. VIII-III asrlarda qadimgi Xitoy

3. Xitoyda birinchi markazlashgan davlat-Sin imperiyasi (er. avv. 221-207-yillar)

4. Qadimgi Xitoy I-III asrlarda.

Shan (in) davlati (miloddan avvalgi xviii-xii asrlar). Qadimgi Xitoyda shahar tipidagi sivilizatsiyaning dastlabki o'choqlari miloddan avvalgi II ming yillikda Xuanxe daryosi havzasida tashkil topa boshlagan. Bu vaqtga kelib in qabilalarining urug'chilik guruhlarini ko'chmanchilik hayot tarzidan o'troq dehqonchilikka o'ta boshlagan edi. In qabilalari ichida mehnat taqsimotining paydo bo'lishi va rivojlanishi hamda urug'chilik aloqalarining yemirilishi oqibatida jamiyatda urug' aristokratiyasining boshqaruvchi tabaqasi: hukmdor - van va uning yaqinlari, qarindoshlari, chinovniklari, qabila boshliqlari hamda oddiy qabiladoshlar, shuningdek, odatda qullarga aylanadigan begonalar - boshqa qabilaga mansub kishilar ajralib chiqqan.

Xitoy an'alarida aytilishicha, qadimgi Xitoyda davlat miloddan avvalgi XVIII asrda sya qabilasining shan qabilasi tomonidan bosib olinishi natijasida tashkil topgan. O'sha vaqtda shan qabilasi boshlig'i Chen Tan degan kishi davlatga asos solib, unga hukmdor qabilaning nomi bilan Shan davlati deb atagan. Keyinchalik, Shan sulolasi qulagandan so'ng bu davlat In degan nom bilan yuritila boshlangan. Shu sababli qadimgi Xitoy tarixining birinchi davri ikkita: Shan va In degan nomga ega. Chen Tan birinchi xitoy podshosi (vani) bo'lgan.⁷

Xitoyda dastlabki primitiv davlat - Shan (In) davlatining tashkil topishi, avvalo, ishlab chiqarishni tashkil etish, yerlarni sug'orish, daryo toshqinlarining halokatli oqibatlarini tugatish, hududlarni himoya qilish zaruriyatidan kelib chiqqan. Qolaversa, endilikda ibtidoiy jamoa tuzumi organlari bosib olingan xalqni boshqarish uchun yaramay qolgan edi. Shu maqsadda maxsus davlat apparati tashkil etilgan. Bu, birinchidan, qabila boshlig'ining In podsholigining ilohiylashtirilgan hukmdori - talaygina hokimiyatga ega bo'lgan vanga aylanishida, ikkinchidan, ko'p sonli boshqaruvchilardan, harbiy boshliqlardan, koinlardan va butun jamoa ommasiga qarama-qarshi turuvchi boshqa kishilardan iborat ma'muriy apparatining tashkil etilishida namoyon bo'lgan. In davrida podsho - vanga butun yerlarning oliy egasi deb qarash amalda rasmiylashtirilgan. Bu esa asosan vanning yerdagi xudo sifatida tasavvur etilishidan kelib chiqqan.

Shunday qilib, Xitoyda davlatning tashkil topish xususiyati shunda ediki, bu yerda ibtidoiy jamoa tuzumidan sinfiy jamiyatga o'tish jarayoni bir xalqning boshqasi tomonidan bo'ysundirilishi natijasida tezlashgan. Lekin bu davlatning tashkil topishida asosiy sabab bo'lmagan. Xitoyda davlat boshqa xalqlarda

⁶O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi, Toshkent, Sharq, 2000-2004.136-137 betlar

⁷ www.referatlar.uz

bo'lgani singari jamiyatning ichki taraqqiyot mahsuli sifatida xo'jalikning va ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi oqibatida mulkiy tengsizlik va tabaqalanishning paydo bo'lishi va urug'doshlik tuzumining yemirilishi natijasida tashkil topgan.

Shan (In) podsholigi jamoa-urug'doshlik tuzumidan sinfiy jamiyatga o'tish bosqichida turgan. Uni sof ma'nodagi quldorlik davlati va jamiyati deb hisoblash unchalik to'g'ri emas. Unda quldorlik munosabatlari bilan bir qatorda jamoa ishlab chiqarishiga asoslangan ijtimoiy munosabatlar ham rivojlangan. Bu yerda hukmron sinf in dunyoviy aristokratiyasidan, koinlardan va bo'ysundirilgan qabilalarning aristokratlaridan tashkil topgan.

Dunyoviy aslzodalarga podshoga yaqinligiga va egallab turgan lavozimiga qarab ma'lum imtiyozlar va unvonlar berilgan. Shuningdek, yer egaligi miqdoriga va qullarning soniga qarab ham ijtimoiy mavqe belgilangan.

Qullarga xususiy shaxslar ham, davlat ham egalik qilishi mumkin bo'lgan. Urushlarda asir olish; qarz uchun qul qilib sotish; ba'zi jinoyatlar uchun qulga aylantirish; bo'ysundirilgan xalqdan o'lpon sifatida qul olish kabilar qulchilik manbai hisoblangan. Qullar hayvonlarga tenglashtirilgan. Ular oilasiga, mol-mulkiga ega bo'lmaganlar.

Aholining asosiy qismini erkin jamaochilar tashkil etgan. In davlatida jamoa juda katta rol o'ynagan. Jamoa yerlaridan foydalanish "quduqli maydonlar" tizimi bo'yicha tashkil etilgan. Barcha yerlar ikkita toifaga: jamoat maydonlari va xususiy maydonlarga bo'lingan. Jamoat yerlariga butun jamoa tomonidan birgalikda ishlov berilgan. Undan keladigan butun hosil jamoa oqsoqoliga kelib tushgan va oxir oqibatda podshoga jo'natilgan. Xususiy maydonlar alohida oilalarning yakka tartibda foydalanishida bo'lgan. Bunday maydonlardan keladigan hosil erkin jamaochilarni boqishga ketgan. Lekin xususiy maydonlar, ularni ushlab turuvchilarining mulki hisoblanmagan. Yerlar davlat mulki sifatida ko'rilgan va podshoning ixtiyorida bo'lgan. Bu davrda qullar, uylar, mehnat qurollari xususiy mulk hisoblangan.

Davlat tuzumi. In podsholigining dastlabki bosqichlarida davlat tuzumida urug'-qabila harbiy demokratiyasi qoldiqlari saqlanib qolgan. Lekin vaqt o'tgan sari podsho asta-sekin butun hokimiyatni o'z qo'lga olib borgan. Shan (In) oqsoqollari qabila boshliqlaridan yakka hukmdorlarga aylanganlar. Fuqarolar orasida ular to'g'risida go'yo ular hokimiyatni ilohiy kuch irodasi bilan olgan. "Osmon o'g'li" bo'lganligi haqidagi tasavvurlar mustahkamlangan.

Podsho birinchi va eng yirik quldor, oliy harbiy boshliq, eng oliy sudya va eng katta ruhoniylar hisoblangan. Din uni xalq ommasini ko'zi o'ngida ilohiy kelib chiqqanligini tasavvur etgan. Podsho davlat apparatiga boshchilik qilgan, o'ziga yaqin kishilardan va qarindosh urug'laridan oliy mansabdor shaxslarni tayinlagan. Ancha mayda mansablarni o'zlariga kasb qilib olgan qator chinovniklar: kotiblar, mirzalar, soliq yig'uvchilar, sudyalalar va boshqalar egallab turgan.

Mansabdor shaxslar uchta asosiy toifaga: oliy fuqarolik chinovniklari; harbiy chinovniklar; turli xil maslahatchilar, avliyolarga bo'lingan. Shuningdek davlatning muhim ajralmas qismi hisoblangan armiya va turmashlar ham mavjud bo'lgan.

Miloddan avvalgi XII asrda Shan (In) davlati ichki ziddiyatlar kuchayishi natijasida tushkunlikka uchragan. In davlati kuchsizlangach, u tomondan bo'ysundirilgan qabilalar, jumladan, chjou qabilasi ham unga itoat etmay qo'ygan. Chjou qabilasi rahbarligida qator qabilalar birlashib, In davlatiga qarshi kurash boshlab yuborganlar. Miloddan avvalgi 1076 yilda Chjou qabilasi in armiyasini tor-mor etgan, Shan davlati qulagan, uning o'rniga Chjou podsholigi tashkil topgan.

Chjou davlati(miloddan avvalgi xi-iii asrlar). Chjou podsholigi Xitoy tarixida quyidagicha uchta davr: g'arbiy Chjou (miloddan avvalgi 1122-742 yillar); Sharqiy Chjou (miloddan avvalgi 770-403 yillar); "urushqoq podsholiklar" davri (miloddan avvalgi 403-221 yillar)ga bo'linadi.⁸

G'arbiy Chjou davlatining chegarasi Vey daryosi boshidan Sharqda Sariq dengizgacha davom etib, uning poytaxti Xao shahri bo'lgan.

G'arbiy Chjou podsholigi hukmdorlari davrida ular atrofdagi qabilalar, xususan junlar bilan urush olib borganlar. In podsholigini bosib olgan chjou qabilalari inlar qo'lga kiritgan xo'jalik, harbiy va moddiy madaniyat sohasidagi yutuqlarni o'zlashtirganlar. Bu davrda ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishining ancha yuqori darajasiga erishilgan, yirik yer egaligi rivojlangan, qulchilik ham o'sgan, davlat ancha mustahkamlanib, uning tarkibiy tuzilishi murakkablashgan.

⁸ www.referatlar.uz

Ijtimoiy tuzum. Jamiyatda quldorlar aristokratiyasi hukmron mavqega ega bo'lgan. Quldorlar aristokratiyasiga nasliy va harbiy chjou oqsuyaklari, in quldorlik aristokratiyasining bir qismi (bosqinchilik urushlari natijasida ko'chib kelib o'r mashganlar) kirgan.

Barcha yerlarning egasi ilgarigidek podsho (van) hisoblangan. Podsho yerlarni tasarruf qilgan: xohlasa in'om qilgan, xohlasa qaytarib olgan. Yirik yer egaligi rivojlanib borgan. Quldorlar aristokratiyasi o'zlariga tegishli yerlarni erkin tasarruf qilganlar. Mavjud ma'lumotlarga qaraganda, yerni sotish, ijaraga berish, garovga qo'yish mumkin bo'lgan. Bu davrda garchi yerga egalik qilishda podsho irodasiga bog'liqlik rasman saqlanib qolgan bo'lsada, egalikdagi yerlarni xususiy mulkka aylantirishga moyillik paydo bo'lgan. Keyinchalik, chjou podsholarining hokimiyati zaiflashishi bilan yirik quldorlarning yerga egalik huquqining yerga xususiy mulkchilik huquqiga aylanishi sodir bo'lgan.

G'arbiy Chjou podsholigi davrida jamoalarning yerdan foydalanish tartibi ilgarigidek katta o'rin tutgan. Yuqorida eslab o'tilgan "quduqli maydonlar" tizimi saqlanib qolgan. Umuman dehqonlar (nunfu) arang kun kechirgan. Ularning ko'pchiligi yersiz ijarachilarga aylangan.

Jamiyatning eng quyi qismini qullar tashkil etgan. Ularning soni harbiy asirlar, tinch aholini bosib olish, davlat jinoyatchilari hisobiga ko'paygan. Ayniqsa xususiy qullarning soni ortgan. Qul mehnatidan xo'jalikning turli sohalarida va og'ir, iflos ishlarda keng foydalanilgan.

Davlat tuzumi. Oliy hokimiyat nasldan naslga meros bo'lib o'tadigan podsho (van) qo'lida bo'lgan.

Chjou podsholigida saroy boshqaruv tizimi mavjud bo'lgan. Saroy xizmatchilari bir vaqtda mansabdor shaxslar ham hisoblanganlar. Bu vaqtda turli vazifalarni amalga oshiradigan ko'p sonli chinovniklar mavjud edi.

Bularning ichida vanning ot-ulovini yurituvchi chi-novnik, mirza (kotib), podsholik arxivi boshlig'i, xazinabon, marosimlarning o'tkazilishini kuzatib turuvchi chinovnik va boshqalar muhim o'rin tutgan.

Davlat apparati vanga yaqin shaxsiy xizmatchilardan, ba'zan esa ishonchli qullardan tashkil etilgan. Davlat apparatiga oliy martabali amaldor (syau) boshchilik qilgan. Syau ma'muriy apparat boshlig'i va mamlakatni boshqarishda podsho (van)ning yaqin yordamchisi bo'lgan. Oliy chinovniklar (dafu) uchta: katta, o'rta va kichik darajalarga bo'lingan.

Rivoyatlarga qaraganda, podsho Chen van (1115-1079 yillar) davlat apparatini tashkil etish va mustahkamlash tadbirlarini amalga oshirgan. Podshoning asosiy maslahatchilari "uchta gun": "buyuk murabbiy", "buyuk ustoz" va "buyuk homiy" hisoblangan (syau aynan shularning ichidan tayinlangan). Bundan tashqari, davlatda muhim rol o'ynagan uchta boshqaruvchi bo'lib, ulardan biri diniy marosimlarni yuritgan, boshqasi jamoat ishlari mahkamasiga boshchilik qilgan (uning ixtiyorida yer fondi va sug'orish tizimi bo'lgan), uchinchi harbiy mahkamani boshqargan. G'arbiy Chjou podsholigida koinlar va folbinlar ham muhim o'rin tutgan. Oliy koin va buyuk folbin degan mansablar mavjud edi.

Armiya asosan urushlar vaqtida yig'iladigan xalq qo'shinlaridan va uncha katta bo'lmagan doimiy xizmatdagi otradlardan iborat edi. Xitoy qo'shinlarining asosini jangovar arava, otliq qo'shin va piyodalar tashkil etgan. Jang aravasi o'sha davrda qo'shinda eng asosiy hujum qiluvchi kuch edi. Jang aravasida haydovchi, kamonboz va nayzabardordan iborat uch kishi bo'lgan.

Chjou podsholigi davrida markazlashgan davlat tashkil etilmagan edi. Van faqat poytaxt viloyatini bevosita boshqarib turgan. Mamlakatning boshqa hududlari vorislik huquqiga ega bo'lgan knazlar - chjuxoular tomonidan idora etilgan. Bu davrda beshta toifa: gun, xou, bo, szi, inan deb nomlanadigan knazlik unvonlarining bosqichma-bosqich bo'ysunishiga asoslanadigan tizimi batamom rasmiylashgan. Quyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga bosqichma-bosqich bo'ysunishi tartibi (iyerarxiya) qat'iy o'rnatilgan. Hukmdorlar o'z hududlarini Chjou podshosining qo'lidan olganlar va ma'lum muddatda saroyda xizmatda bo'lishlari lozim edi. Demak, ular podshoga qaram bo'lganlar.

Knazlik hududi urug'-qabila bo'linishi asosida tashkil topgan ancha kichikroq ma'muriy birliklarga bo'lingan. Eng quyi zvenodagi ma'muriy-hududiy birlik qishloq jamoasi hisoblangan. Ma'lumotlarga qaraganda, turli knazliklarda qishloq, jamoalarining tuzilishi har xil bo'lgan. Bularning ichida eng ko'p tarqalgani quyidagicha bo'lgan: beshta oila qo'shni jamoa - linni tashkil etgan, beshta shunday jamoalar qishloq - li, to'rtta li szu "klani" (urug' jamoasi)ni, beshta szu guruhni - danni, beshta dan okrug - chjouni tashkil etgan, beshta chjou syanni tashkil etgan. Syau tepasida uning boshqaruvchisi - sin turgan. Eng quyi ma'muriy mansab qishloq jamoasi oqsoqoli bo'lgan.

Miloddan avvalgi IX asrda markaziy hokimiyatning tobe knazliklar hukmdorlari bilan aloqalari zaiflashgan. Knazliklarning hukmdorlari saroyga kelmay qo'yganlar, o'lponlar jo'natmaydigan bo'lib qolganlar. Katta yer-mulkka ega bo'lgan nufuzli kishilar, viloyat hokimlari podsholarga itoat etmay

qo'rganlar. Eksploatatsiyaning kuchayishi xalq ommasining noroziligini keltirib chiqargan. Ko'chmanchi junlar bilan olib borilgan muvaffaqiyatsiz urushlar ham g'arbiy Chjou davlatining yemirilishiga o'z hissasini qo'shgan. Mamlakat bir qancha mustaqil davlatlarga bo'linib ketgan. Miloddan avvalgi 770 yilda podsholik poytaxti Xaodan Loyanga ko'chirilgan. Shundan keyin Sharqiy Chjou podsholigi davri boshlangan.

Sharqiy Chjou podsholigi davri mamlakatning iqtisodiy va siyosiy hayotida yirik o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi ijtimoiy hayotda savdogarlar rolining o'sishiga sabab bo'lgan. Quldor zodagonlar o'zlarining merosiy urug'chilik yer egaliklaridan mahrum bo'lganlar, bunday yerlar harbiy boshliqlar, xizmatchi kishilar, savdogarlar qo'lga o'tgan. Bu urug' aristokratiyasining merosiy yer egaligining zaiflashishiga va quldorlarning yerga nisbatan xususiy mulkchilikning mustahkamlanishiga olib kelgan. Xizmatchi zodagonlar qo'lida anchagina yer egaliklari to'plangan. Yirik yer egaligi faqat doimiy xizmat va alohida xizmatlar uchun beriladigan in'omlar, tortiqlar hisobiga emas, balki kuchlilar tomonidan kuchsizlarni zo'rlik yo'li bilan bosib olish hisobiga ham tashkil etilgan.

Miloddan avvalgi VII-IV asrlarda Sharqiy Chjou podsholigida hukmronlikni qo'lga kiritish uchun Si, Szin, U, Chu, Yuz kabi mayda podsholiklar o'rtasida o'zaro urushlar davom etgan. Bu davr Xitoyda besh hokim davri yoki Chjango ("urushqoq podsholiklar") davri deb yuritiladi.

Bu davrda uzoqqa cho'zilib ketgan tinimsiz o'zaro urushlar iqtisodiyotning pasayishiga, sug'orish inshootlarining izdan chiqishiga sabab bo'lgan. Va nihoyat, odamlar tinchlik o'rnatish va Xitoy xalqlarining birlashishi zarurligini tushuna boshlaganlar. Odamlardagi bunday kayfiyatlar konfutsiy dini targ'ibotchilari tomonidan ifoda etilgan. Ular "g'araz niyatlarsiz va odamlarni yo'qotmasdan" mamlakatni birlashtirishga chaqirganlar. Tinimsiz davom etgan urushlarga qaramay Chjango davrida turli mintaqalar va xalqlarning iqtisodiy va moddiy aloqalari kuchaygan. Bu esa o'z navbatida ularning yaqinlashuviga va turli mayda podsholiklarning yettita yirik Xitoy podsholiklari atrofida "yig'ilishi"ga olib kelgan.⁹

Miloddan avvalgi V asrda qadimgi Xitoy tarixida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarda keskin o'zgarishlar yuz bergan. Bu vaqtda podsholikning yagona imperiyaga birlashishiga olib keladigan shart-sharoitlar tug'ilgan. Bunda yuqorida aytganimizdek, konfutsiylik siyosiy hukmron mafkura bo'lib qolgan. Ishlab chiqarishda temirdan yasalgan mehnat qurollaridan foydalanilishi iqtisodiyotning birdaniga ko'tarilishiga sabab bo'lgan. Yangi yerlarning o'zlashtirilishi, sug'orish inshootlarining yaxshilanishi, qishloq xo'jalik va hunarmandchilik ishlab chiqarishining o'sishi tovar-pul munosabatlarining rivojlanishiga, bozorning paydo bo'lishiga, savdogarlar tabaqasining ajralib chiqishiga ko'maklashgan. Bunday sharoitlarda yerga nisbatan jamoa mulkchiligining yemirilishi va xususiy mulkchilikning o'rnatilishi, yirik yer egaligining tashkil etilishi jarayoni yanada jadallashgan. Bu vaqtda eski tipdagi jamoa yer egaligi ("quduqli maydonlar" tizimi) buzila borgan. Jamoa yer egaligiga qarshi qaratilgan zarbalardan biri - yer solig'ining joriy qilinishi bo'lgan. Dehqonlar jamoa maydonlarida ishlash o'rniga o'z yerlaridan soliq to'lashlari lozim bo'lgan.

Bularning hammasi Xitoyda miloddan avvalgi so'nggi asrlarda jamiyat rivojida ikkita qarama-qarshi oqimning kurashida namoyon bo'lgan. Bu vaqtda bir tomondan, ijarachi dehqonlarni, yollanma ishchilarni, qullarni eksploatatsiya qilishga asoslangan yirik yer egaligi rivojlangan bo'lsa, ikkinchi tomondan, bevosita davlatga bo'ysunadigan qaram dehqonlarning keng ommasi shakllanib borgan. Oldinda olg'a borish mumkin bo'lgan ikkita yo'l turar edi. Bulardan birinchisi - yerga nisbatan yirik xususiy mulkchilikning g'alabasi orqali tarqoqlikka, o'zaro urushlarga olib boradigan yo'l bo'lsa, ikkinchisi - yerga nisbatan davlat mulkchiligini mustahkamlash orqali yagona markazlashgan davlatni tashkil etishga olib boradigan yo'l edi. Xitoy rivojlanishining keyingi yo'lidan yurgan. Bunda miloddan avvalgi IV asrda kuchayib ketgan Sin podsholigi muhim o'rin tutgan. U miloddan avvalgi 221 yilda boshqa podsholiklar bilan kurashda g'olib chiqadi va mamlakatni birlashtirish uchun uzoq davom etgan kurashni nihoyasiga yetkazib, yagona Sin podsholigiga asos soladi.

3. QADIMGI SIN DAVLATI(miloddan avvalgi 221-207 yillar)

Sin podsholigi Sharqiy Chjouning g'arbiy qismida - Xuanxe irmoqlaridan biri Vey daryosi havzasida joylashgan edi. Miloddan avvalgi IV asr o'rtalarida Sin podsholigi birmuncha kuchayadi. Podsho Sao-gun (361-338 yillar) davrida davlatning nufuzli amaldori Shan Yan tomonidan bir qancha islohotlar o'tkazilgan. Bu islohotlar kuchli markazlashgan davlatning tashkil topishiga ko'maklashgan. Bu islohotlar quyidagilarni o'z ichiga olgan. Islohotga ko'ra, yerni istagancha xususiy mulk qilib olish, uni erkin sotish va sotib olishga

⁹ www.referatlar.uz

ruxsat berilgan. Bu esa jamoa yer egaligiga berilgan qattiq zarba edi. Jamoalarning yemirilishini, shuningdek, katta oilalarning majburiy bo'linishi haqidagi qonun ham tezlashtirgan. Davlatni markazlashtirish maqsadlarida hududiy tamoyil bo'yicha yangi ma'muriy bo'linish amalga oshirilgan. Soliqlar undirish tizimi o'zgargan. Hosildan olinadigan soliq yer solig'iga almashtirilgan. Yangi soliq ishlov beriladigan yerning miqdoriga qarab belgilangan. Qo'shin qayta tuzilib, qurollantirilgan, harbiy xizmatlar uchun 18 darajali zodagonlik tashkil etilgan. Bu islohotlar markaziy, ya'ni podsho hokimiyatini ancha mustahkamlagan. Davlatdagi ijtimoiy-siyosiy hayot umumiy qoidalarga bo'ysungan. Imperator yagona yozuv belgilarini jriy qilgan, og'irlik va uzunlik o'lchovlarini tartibga keltirgan, hamma uchun majburiy qonunlar tasdiqlagan, hatto marosimlarga oid asbob-anjomlar va qurol-yarog'lar yagona namuna bo'yicha tayyorlangan. Qonunlarga qat'iy rioya qilish mamlakatda tartib saqlanishining eng muhim sharti hisoblangan.

Biroq Shan Yan islohoti eski zodagon, mehnatkash xalq va qullarning, shuningdek konfutsiychi oqim namoyandalarining qarshiligiga uchragan. Podsho Syao-gun vafotidan keyin Shan Yan ham zodagonlar tomonidan qatl etilgan. Shunday bo'lsada, Shan Yan tomonidan o'tkazilgan islohotlar davlatni ancha mustahkamlagan.

Podsho In Chjen davrida (241-210 yillar) Sharqiy Xitoy yerlari birlashtirilgan. In Chjen - Sinning birinchi podshosi (Sin Shi Xuandi) degan nom olgan. U Sharqiy Xitoydagi oltita podsholikni o'ziga qaratib olgach, shimoldagi syunni (xunn) qabilalariga qarshi zafarli urushlar olib borgan. Janubda esa u Yuz podsholigini ham o'ziga itoat ettirgan. Shu tariqa yirik imperiyaga asos solingan. Davlat boshlig'i imperator (xuandi) bo'lgan; u juda katta vakolatlarni qo'lga kiritib olgan. Qonun chiqarish, ijro etish va sud hokimiyati unga tegishli edi. Imperiya juda keng tarmoqli davlat apparati tomonidan idora etilgan. Davlat apparatida o'n minglab chinovniklar xizmat qilgan. Boshqaruv apparati tepasida o'ng va so'l chensyanlar (ministrlar) turgan. Chensyanlarning o'rinbosarlari kotiblar bo'lgan. Saroy qo'riqlash xizmatining boshlig'i, imperator avlodlarining marosimlarini o'tkazishni yurituvchi chinovnik, tashqi munosabatlarni yurituvchi chinovniklar davlatda oliy chinovniklar hisoblangan. Davlat apparati faoliyatida imperator maslahatchilari katta rol o'ynagan.

Qadimgi Xitoy podsholiklari bosib olingandan so'ng imperiyada Shan Yan islohotlari namunasida bir qator ma'muriy, agrar, moliya va harbiy islohotlar o'tkazilgan. Ilgarigi podsholiklarning chegaralari yo'q qilingan. Butun imperiya hududi o'ttiz oltita viloyatga bo'lingan. Viloyatlar o'z navbatida uyezdlar, uyezdlar - volostlarga, volostlar esa - tin (eng quyidagi ma'muriy birlik)larga bo'lingan. Har bir viloyat tepasida ikkitadan boshqaruvchi - harbiy va fuqarolik hokimiyati vakillari turgan. Ular poytaxtlardan tayinlangan va imperator tomonidan xohlagan vaqtda almashtirilishi mumkin bo'lgan. Eski aristokratiya imperiya chinovniklarining qattiq nazorati ostiga olinib, eski zodagonlik unvonlari bekor qilingan.

Boylik va davlat xizmatlari aslzodalik mezoni bo'lib qolgan. Zarracha ayb yoki nojo'ya ish uchun jazolovchi juda qattiq qonunlar joriy etilgan. Chinovniklar o'z faoliyatlarida qattiq o'rnatilgan yagona qonunlarga amal qilganlar. Bu davrning davlat apparati kattaligi, murakkabligi bilan ajralib turgan, unda juda ko'p miqdordagi chinovniklar xizmat qilgan.

Markazlashgan davlatning tashkil topishi dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishiga imkon yaratgan. Ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi aholining tabaqalashuvini kuchaytirgan. Shu bilan birga yirik yer egaligi rivojlanib, jamoalar xonavayron bo'lishda, qullarning soni ko'payib borishda davom etgan. Ayniqsa, Sin podsholigi davridagi to'xtovsiz urushlar, Buyuk Xitoy devoriga (uni qurish ishlari miloddan avvalgi IV asrda boshlangan edi) sarflangan sarf-harajatlar va soliqlar mehnatkashlarni og'ir ahvolga solib qo'ygan. Ular o'rtasida qattiq noroziliklar kelib chiqqan. Oqibatda kuchli xalq qo'zg'olonlari - dehqonlarning ulkan miqyosdagi urushlari boshlanib ketgan. Ana shunday urushlardan biri miloddan avvalgi 209 yilda butun mamlakat bo'ylab boshlanib, Sin davlatini halokatga olib kelgan. Unga Lyu Ban degan qishloq oqsoqoli rahbarlik qilgan edi. Miloddan avvalgi 202 yilga kelib Lyu Ban tarafdorlari g'olib chiqib, u o'zini yangi Xan sulolasining podshosi deb e'lon qilgan. Shu tariqa Sin podsholygi tugatilib, o'rinda Xan podsholigi paydo bo'lgan.

Qadimgi Xan davlati (miloddan avvalgi 206-yildan-miloddagi 220 yilgacha) Xan podsholigining asoschisi Lyu Ban mamlakatni markazlashgan davlatga aylantirish uchun ko'pgina chora-tadbirlar o'tkazgan. U o'z hukmronligining boshida qullar va dehqonlar ahvolini yaxshilashga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirgan. Sin Shi Xuandi davrida zarar ko'rgan jabrdiydalar manfaatini ko'zlab, ularga ancha yengilliklar berilgan, qarzlari va arzimagan jinoyatlari uchun qullarga aylantirilgan kishilar ozod qilingan. Ayni paytda og'ir soliqlar bekor qilingan, yer solig'i kamaytirilgan. Mahalliy ishlar saylab

qo'yiladigan oqsoqollar tomonidan boshqariladigan bo'lgan. Biroq bu islohotlar quldorlikning va yirik xususiy yer egaligining - ijtimoiy ziddiyatlarni tug'diradigan asosiy sabablarning o'sishini to'xtata olmagan. Xalq ommasining ahvoli oradan biroz vaqt o'tgach yana yomonlashgan.

Miloddan avvalgi I asrning oxirida imperator U Di maxsus farmon chiqarib, yirik mulkdorlar ixtiyoridagi yerlarning miqdorini va qullarning sonini ancha qisqartirgan: hech kim 138 gektardan ortiq yerga va ikki yuzdan ko'p qulga ega bo'lishi mumkin emas edi. Ba'zilar o'ttiz nafardan ko'p qulga ega bo'lmasligi lozimligi o'rnatilgan edi. Bu miqdor quldorning ijtimoiy holatiga qarab belgilangan.

Markaziy va mahalliy davlat apparati tizimi ilgorigidek saqlanib qolgan. Podsho hokimiyatining maqsadi, asosiy ishtiyoqi mamlakatni markazlashtirishga qaratilgan edi. Bunga Xitoyning yangi ma'muriy bo'linishi ko'maklashgan. Mamlakat xududi o'n uchta yirik okrugga bo'lingan. Okruglarga mahalliy ma'muriyat ustidan nazoratni amalga oshiruvchi okrug taftishchi - podshoning noiblari boshchilik qilgan. Viloyatlar, okruglar, uyezdlar soni ko'paytirilgan.

Viloyatlar va uyezdlar tepasida markazdan tayinlangan uchta chinovnik - hukmdor va uning fuqarolik va harbiy ishlar bo'yicha yordamchilari turgan. Mahalliy ma'muriyat faoliyati markazdagi nazoratchilar tomonidan nazorat qilingan.

U Di vafotidan so'ng Xitoyda ahvol yanada og'irlashgan. Qullar va mehnatkash xalqning sabr kosasi to'lib, mamlakatda dahshatli qo'zg'olonning boshlanishi xavfi tug'ilgan. Miloddan avvalgi I asrning ikkinchi yarmida ahvol shunday dahshatli tus olganki, bundan podsho va hukmdor tabaqa vakillari cho'chigan. Ular mehnatkashlarga yon berib, ba'zi ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar o'tkazishga majbur bo'lganlar. Bu jihatdan Dun Chjun-shu, Van Chun va Van Man islohotlari diqqatga sazovordir. Dun Chjun-shu katta yerlarning bir kishi qo'lida bo'lishini taqiqlashni, tuz va temirga nisbatan yakka hokimlikni bekor qilishni taklif etgan. U quldorlarning o'z qullarini o'ldirishlarini bekor qilib, qullikni bitirishni, soliqlarni kamaytirishni, harbiy va ortiqcha mehnat majburiyatlarini yengillashtirishni talab qilgan.

Sinfiy ziddiyatlarni tepadan turib islohotlar yo'li bilan yumshatishga qaratilgan ancha dadil urinish miloddan 8 yilda saroy to'ntarishi natijasida hokimiyat tepasiga kelgan Van Man tomonidan qilingan edi. Van Man milodning 9 yilida o'zini "Yangi" sulolaning imperatori deb tantanali suratda hammaga ayon qilgan va qat'iy islohotlar siyosatini o'tkazish niyatini e'lon qilgan. Konfutsiylar islohotlarning g'oyaviy ilhomlantiruvchilari bo'lishgan.

Islohotlarning mohiyati quyidagilarni o'z ichiga olgan. Ularga ko'ra yirik yer egalari qarashli yerlar musodara etilgan. Mamlakatdagi barcha yer "podsho yeri" deb e'lon qilingan. Yerlarni qayta taqsim qilishga, yer egaligini cheklashga harakat qilingan. Shular bilan bir vaqtda jamoa yer egaligining qadimiy tizimi qayta tiklangan. Yer va qullarni olish-sotish man etilgan. Shu bilan birga qullarni "shaxsiy qaram kishilar" deb atash buyurilgan. Bu Xitoyda qulchilikni bekor qilish haqidagi birinchi qadam edi. Biroq Van Man xususiy qulchilikka qarshi kurash olib borib, davlatning qul egaligini cheklashga mutlaqo harakat qilmay, balki, hatto davlatning qulga egaligini uning qonuniy huquqi sifatida asoslashga urindi. Davlat qullarining soni ko'paydi. Ulardan armiya tuzila boshlandi.

Bir necha marta pul islohotlari o'tkazildi, yangi soliqlar joriy qilindi, ba'zi soliqlar kamaytirildi, bozor narxlarini tartibga solishi va ssuda foizlarini qat'iy belgilashi lozim bo'lgan maxsus boshqarmalar ta'sis etildi. Bularning hammasi barcha daromad manbalarining, xususan, ssuda operatsiyalarining katta qismini davlat qo'lida to'planishiga imkon tug'dirdi.

Van Man kuchli byurokratik imperiya tuzishga intilgan. Davlat apparati o'sgan, mansablarni sota boshlagan. Davlat xizmatchilari mansablarni egallash uchun imtihon topshirganlar. Bunda ular Konfutsiy ta'limotini mukammal bilishlari lozim edi. Bu tadbirlar eski urug'chilik va chinovniklik aslzodalarning qudratini sindirgan va boyigan savdogarlarning, hunarmandlarning, aslzoda bo'lmagan dehqonlarning davlat boshqaruviga kirib kelishini ta'minlagan. "Yangi qonunlar"ni buzganlik uchun qattiq jazolar joriy qilingan va o'n minglab kishilar qatl etilgan yoki davlat qullariga aylantirilgan.

Lekin Van Man islohotlari oxirigacha yetkazilmagan, o'ylangan natijalarni bermagan va zodagonlar, nufuzli kishilar hamda harbiylarning qarshiligiga uchragan. 12 yilda yer islohoti bekor qilinib, qul savdosiga yana ruxsat berilgan. Islohotlar sinfiy qarama-qarshiliklarni bo'shashtirmadi, aksincha, ularni chuqurlashtirdi va keskinlashtirdi, mamlakat iqtisodiyotining buzilishiga olib keldi. Islohotlarning amalga oshmaganligi, qurg'oqchilik, chigirtka bosish natijasida ro'y bergan hosilsizlik ochlik va nihoyasiz jabr-zulmlar mehnatkash ommaning sabr-kosasini to'ldirgan. Bu hol Xitoyda podsho hokimiyatiga, zamindor zulmkorlarga qarshi xalq harakatining boshlanishiga olib kelgan. 18 yilda boshlangan va "qizil qoshlar" nomi bilan mashhur bo'lgan qo'zg'olon ana shunday harakatlardan biri edi. Qadimgi Xitoy yilnomalarida

yo'zishicha, qo'zg'olonda Van Man tomonidan ag'darib tashlangan Xan sulolasi vakillari ham qatnashgan. Ularning asosiy maqsadi o'z hokimiyatlari qayta tiklanishiga erishish edi. 23 yilda Xan sulolasi taxtni qaytadan egallab, Van Manning farmonlari va buyruqlarini bekor qilgan. Mamlakat iqtisodi barqarorlasha boshlagan. Davlat apparatida muhim o'zgarishlar yuz bergan. Mamlakatni idora etish bo'yicha funksiyalar beshta mahkama o'rtasida taqsimlab olingan, imperator huzurida oliy maslahatchi organ - imperatorlik kengashi tuzilgan.

II asrning ikkinchi yarmida Xitoyda yana og'ir vaziyat vujudga keladi, siyosiy guruhlar o'rtasidagi kurash chuqur siyosiy inqirozga olib keladi. Mamlakatning xo'jalik tizimi tushkunlikka uchraydi. 184 yilgi kuchli "sariq ro'molliklar" qo'zg'oloni butun mamlakatni qamrab olgan. Qo'zg'olon hukumat qo'shinlari tomonidan katta talofotlar evaziga zo'rg'a bostirilgan. Jang natijasida 80 mingdan ortiq kishi halok bo'lgan, yerlar bo'shab qolgan, ba'zi yirik shaharlar vayron etilgan. 188 - 207 yillarda ham Hitoyning ko'p joylarida kuchli qo'zg'olonlar bo'lib o'tgan. Ammo ularning hammasi hukumat qo'shinlari tomonidan shafqatsizlarcha bostirilgan. Lekin shunga qaramay, qo'zg'olonlar Xan saltanatini zaiflashtirib yuborgan va oxir oqibatda uning qulashiga olib kelgan. 220 yilda Xan podsholigi Vey, Shu va U kabi davlatlarga bo'linib ketgan. Bu Xitoy tarixida Uch podsholik davri deb ataladi. Shu bilan qadimgi Xitoy tarixi o'z nihoyasiga yetgan.

4. QADIMGI XITOIY MADANIYATI.

Qadimgi Xitoy o'ziga xos betakror madaniyat bilan jahon madaniyatini rivojlanishiga o'z hissasini qo'shdi. Uning ta'siri ayniqsa Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida kuchliroq aks etdi.

Xitoy tili va yozuvi. Xitoy tili murakkab tillar oilasiga mansub bo'lib, ko'plab saqlanib qolgan arxaiik tillar oilasiga kiradi. Xitoy tili Xitoy-Tibet tillar oilasiga mansub bo'lib, 7ta asosiy shevalarga bo'linadi:

1. Shimol shevasi;
2. Vu shevasi;
3. Sian shevasi;
4. Gang shevasi;
5. Hakka shevasi;
6. Yue shevasi;
7. Ming shevasi;

Bundan tashqari asosiy va to'g'ri talaffuz qilinadigan shevalar han mavjud bo'lib, bular quyidagilar:

1. Pekin shevasi; 2. Chiziyen shevasi;
3. Kantong shevasi; 4. Fuziyen shevalairdir.

Xitoy tili Xitoy Xalq Respublikasining rasmiy tili bo'lib, unda davlatning 95% aholisi gaplashadi. Undan tashqari Tayvan, Indoneziya, Kombodji, Laos, Vetnam, Birma, Malayziya, Tayland va Singapur kabi davlatlarning xitoylik va unga mansub bo'lmagan millatlar ham so'zlashadi.

Xitoy tilining rivojlanish tarixi bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi.

1. Mifik – ya'ni, turli mif va afsonalar asosida vujudga kelgan til. Bu til faqat og'zaki nutqda mavjud bo'lgan.
2. Arxaiik – qadimiy suyaklarga o'yib yozilgan yozuvlardir. Bu eramizdan avvalgi XIV-XI asrlarga to'g'ri keladi. Bu yozuvlar qadimda Shanin va Ziyan deb atalgan.
3. Ilk klassikagacha bo'lgan davr – buning asosini bronza idishlarga tushirilgan yozuvlar tashkil etadi va ular eramizdan avvalgi X-VII asrlarga tegishlidir. Ushbu yozuvlar "Jinven" deb nom olgan.
4. So'nggi klassikagacha bo'lgan davr – bu toshlarga bitilgan yozuvlar bo'lib, "Tarix kitobi" va "Qo'shiq kitobi"larida saqlanib qolgan. Bu yozuvlar eramizdan avvalgi VII-VI asrlarga tegishlidir.
5. Erta klassik davr – bular tarixiy va xronologik yozuvlar bo'lib, Konfutsiychili va Daosizm klassikasi hisoblanadi. Ular eramizdan avvalgi V-III asrlarda mavjud bo'lgan.
6. So'ggi klassik davr – bu davrga oid yozuvlar Sima Chianning "Tarixiy yozuvlar" asarida saqlanib qolgan. Bu davr eramizdan avvalgi II asri va eramizning II asrini o'z ichiga oladi.
7. Post klassik davr – eramizning III-V asriga to'g'ri keladi. Bu davrda esa turli shoirlar, faylasuflarning turli she'r va qo'shiqlari paydo bo'la boshlagan. Ushbu davrlar ichida eramizdan avvalgi V-II asrga doir yozma yodgorliklar eng muhimi hisoblanadi.

Qadimda hali qog'oz paydo bo'lib ulgurmagan bir paytda, barcha ma'lumotlar, taxminiy yozuvlar va yozma yodgorliklar bronzaga, toshga, turli hayvon suyaklariga va toshbaqa kosalariga o'yib yozilgan. Bu yozma yodgorliklar miloddan avvalgi 2000 yillikdan beri dunyoni hayratga solib kelmoqda. Quyidagi yozuvlar saqlanib qolgan Xitoyning qadimiy "Shujing" ("Tarix kitobi") va "Shijing" ("Qo'shiq kitobi") kabi yodgorliklar eramizdan avvalgi 1000-yilning birinchi yarmiga mansubdir. O'sha davrdagi mavjud shevatlar asosini qadimiy xitoy adabiy tili tashkil qilgan. U "vengan" deb atalib, uzoq vaqt mobaynida muloqot vositasi bo'lgan va asta-sekin og'zaki nutqdan chiqa boshlagan. Eramizning 1000-yillariga kelib esa so'zlashuvchilar orasida umuman tushunarsiz tilga aylangan. Bu adabiy til o'zida qadimiy xitoy tili me'yorlarini o'zida aks ettirgan va XX asrgacha adabiy til sifatida foydalanilgan. Bu vaqt mobaynida til bir qator o'zgarishlarga uchragan. Buni birgina 雨 – yu – yomg'ir ieroglifi misolida ko'rishimiz mumkin.

Qadimgi Xitoy tili (上古汉语) me'yoriy adabiy xitoy tili miloddan avvalgi XIV asrda Huanghe daryolari bo'yida paydo bo'lgan. Keyinchalik butun Xitoy bo'ylab tarqalgan. Qadimgi xitoy yozuvi esa o'zining yozuv shakli bilan nafaqat Xitoy balki, unga chegaradosh bo'lgan davlatlarga o'z ta'sirini o'tkazgan. Jumladan, Sharqiy Osiyodagi Yaponiya, Korea va Vetnam davlatlarini aytib o'tish mumkin. Ushbu davlatlar uchun ham qadimgi xitoy adabiy tili asosiy til bo'lib hisoblanadi. Bu holat esa XX asrning boshlariga qadar davom etib kelgan. 1919-yilning 4-mayidagi harakatlardan so'ng, Xitoyda adabiy til deb "Baihua" ("Tushunarli til") e'lon qilindi. "Baihua" Xitoyning shimoliy sheva asosida vujudga kelgan.

Xitoy ierogliflari dunyodagi eng qadimiy yozuvlardan hisoblanib, dunyo tillari ichida o'zining yozuv belgilari soni bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Belgilarning soni hozirgi kunda 85000 dan ortiq va ularning 6000 ga yaqini umumqo'llaniladigan ierogliflar hisoblanadi. Xitoy ierogliflari tarixi "Piktogramma"larga borib taqaladi. Piktogramma – bu biror narsa yoki hodisa ifodalangan belgili surat. Hozirgi kunga kelib bunday yozuv faqat 3400 yillik tarixga ega toshbaqa kosalarida saqlanib qolgan. Bundan shu ma'lum bo'ladiki, o'sha paytlardayoq ma'lum me'yorlarga asoslangan yozuv mavjud bo'lgan. Piktogrammalar to hozirgi davrga qadar o'zgarib, yozuv belgilariga aylangan. Toshbaqa kosalariga yozilgan yozuvlar davridan to hozirgi zamonaviy yozuvlarga qadar 10 xil yozuv turi mavjud bo'lgan. Ulardan asosiylari 5ta, bu usullar ham 2ga bo'linadi va 3tasi hozirda ham qo'llaniladi. 2tasi qadimiy yozuv hisoblanib, ularni faqatgina kalligrafiya san'atida uchratish mumkin. Quyida ularning 5tasiga to'xtalib o'tamiz:

1. Kaishu – bu namunaviy yozuv usuli bo'lib, 1000 yildan beri qo'llaniladi va zamonaviy xitoy ieroglif yozuvida keng qo'llaniladigan asosiy usul hisoblanadi. Bu usul komputer shriftlari va tepografiyada ishlatiladi. Uning o'ziga xos xususiyati belgilarning aniq tartibidir, ya'ni ieroglifdagi har bir belgi aniq ko'rinib turadi va sekin yoziladi.
2. Sinshu – bu yozuv turiga "yuruvchi yoki yuguruvchi xat" nomi berilgan. Bu usulning o'ziga xosligi ieroglifdagi nuqta yoki boshqa belgilar bir-biriga birikkan holda ifodalanadi. Bu usul tez yozilishi bilan ham boshqa yozuv turlaridan farq qiladi.
3. Tsao shu – ushbu yozuv turi ham tez yozuv usuli bo'lib, bu usulda ko'pincha ba'zi bir belgilar tushib qolishi ham mumkin. Shuning uchun ham bu usuldagi yozuvlarni tushunish biroz qiyin.
4. Juangshu – bu yozuv qadimiy bo'lib, "qayd etuvchi yoki ish yozuvi" deb nom olgan. U toshbaqa kosalari va turli hayvon suyaklariga bitilgan yozuvdir. Bu yozuv usulidagi belgilarda hech qanday ilgaklar bo'lmaydi. Bu usul faqat kalligrafiya va qadimgi san'at asarlarida saqlanib qolgan.
5. Lishu – qadimda ma'lum bir davlat hodimlarining qayd etish usuli bo'lib, bunda ko'proq davlat ishlari olib borilgan. Bu usul Xan sulolasi davrida qo'llanilib, eramizdan avvalgi I asrning o'rtalarida mavjud bo'lgan. Bu shriftlarning barchasi hozirgi zamon komputer yozuvlari orasida keng tarqalgan.

Xitoy dini. Miloddan avvalgi II ming yillikning boshlarida Qadimgi Xitoy dini vujudga kelgan.

Qabila ittifoqi davlatga o'sib o'tishi natijasida hukmron In qabilasining homiysi Shandi bosh xudo sifatida qabul qilingan. Qudratli xudolarga sig'inish urug'- qabila dinlari negizida shakllanganligi sababli unda totemiz va animizmning ta'siri kuchli bo'lgan. Xitoyliklar Shandini ulug' ajdod sifatida qadrlaganlar. U elat farovonligining himoyachisi, ajdodlar an'analarga amal qilinishining nazoratchisi sifatida mazkur tar- tibni buzganlarni jazolagan. Odamlar unga o'z kundalik muammolarini hal etishda ko'mak so'rab sig'inganlar. Shandining ulug' ajdod sifatidagi vazifasi keyinchalik ajdodlar ruhiga sig'inishning mamlakatda keng yoyilishiga shart-sharoit yaratgan.

Miloddan avvalgi XI asrda Xitoyda Chjou sulolasining hukmronligi davrida Shandiga e'tiqod Osmon xudosi va ajdodlar ruhiga sig'inish

bilan almashgan. Shu bilan birga, hukmdorning Osmon xudosi bilan nasliy bog'liqligi g'oyasi vujudga kelgan va Xitoy «osmonosti imperiya» deb ataladigan bo'lgan.

Osmon xudosi borliqni belgilovchi o'zgarmas koinot tartibini ifodalaydi. Koinotda amal qiluvchi tartib jamiyatda axloq normalarida namoyon bo'ladi. Fozillikka intilish Osmon qonuniyatlariga amal qilish bilan ayniylashtirilgan. Bunda kishining asosiy vazifasi Osmon bilan to'g'ri munosabatda bo'lish, jahoniy tartibga mos kelishdir. Jahoniy tartib borliqda, tabiatda o'zini namoyon qiladi. Zero, borliq va tabiat ilohiy mukammallikning bir ko'rinishi ekan, inson bu tartibni buzishga haqli emas. Kishi tabiat bilan uyg'un yashashi, undagi mukammallikka intilishi kerak. Tabiatdagi mukammallikka intilish odamlar o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir etgan. Xitoyliklar har bir odamda ijtimoiy ahvolidan qat'i nazar mukammallik mavjud deb qaraydilar.

Qadimgi Xitoy dinining xususiyatlaridan yana biri shundaki, kohinlar tabaqasi jamiyatda kuchli mavqega ega, lekin bu yerda kohin va davlat xizmatchisining vazifasi bir bo'lgan. Chunki imperator Osmon xudosining yerdagi vakili, birinchi kohin sifatida diniy marosimlarni bajarish

vazifasini davlat xizmatchilarining zimmasiga yuklagan. Ularning asosiy vazifasi davlatning barqarorligini ta'minlash bo'lganligi sababli Osmon xudosa sig'inish rasmiy-byurokratik mazmun kasb etgan.

Shandi, Osmonga va ajdodlar ruhiga sig'inish Qadimgi Xitoy madaniyatining asosi vazifasini bajargan. Ularning asosida daosizm va konfutsiylik diniy-falsafiy ta'limotlari shakllangan.

Qadimgi Xitoy diniy falsafiy ta'limotlardan biri daosizmdir. U falsafiy ta'limot sifatida miloddan avvalgi VII asrda vujudga kelgan. Miloddan avvalgi IV-III asrlarda diniy ta'limot sifatida mustahkamlangan. Daosizm ta'limotning asoschisi - mutafakkir murabbiy Lao-szti.

Mazkur diniy ta'limotning asosini Dao to'g'risidagi qarashlar tashkil etadi. Dao - borliq, koinot to'g'risidagi qonun, dunyoning universal birligi, ilohiy absolut (lotincha absoluts - cheklanmagan, so'zsiz, shubhasiz degan ma'nolarni anglatadi, borliqning abadiy ibtidosi)dir. Daoni hech kim yaratmagan, borliq undan boshlanadi va unga qaytadi.

Dao ilohiy ibtido va ayni bir vaqtda ilohiy «yo'l»dir. Dunyodagi barcha narsa va hodisalar, jumladan buyuk Osmon ham shu yo'ldan boradi. Baxtga erishishni orzu qiladigan barcha odamlar shu yo'ldan borishi, Daoni anglashi va unga qo'shilishi kerak. Odam mikrokosm, Dao makrokosm va abadiydir. Uning o'limi bu ruhning tanadan ajralib chiqishi va makrokosmga singib ketishidir. Odamning vazifasi ruhning jahon tartibi bilan qo'shilib ketishiga harakat qilishdan iborat. Bunga quyidagicha erishiladi.

Dao ta'limotiga ko'ra, Dao yo'liga De kuchi xosdir. De orqali har bir kishida Dao namoyon bo'ladi. De odamlarni maqsadga erishishlarida faollikka undamaydi. De ularni tabiat tartiblarini buzishdan saqlaydigan faolsizlikka chorlaydi. Odam o'zligini anglashdan borliqni bilish sari boradi. Daoning ideali - tabiat bilan uyg'unlikda, uning maromiga monand yashaydigan kishilar.

Daosizm Qadimgi Xitoy diniy tizimining diniy mistik sohasi rivojlanishiga katta hissa qo'shgan bo'lsa, konfutsiylik diniy e'tiqoddagi hayotiylik, ijtimoiylik va axloqiylik jihatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Konfutsiylikning asoschisi Qadimgi Xitoy mutafakkiri Kun-sztidir.

Konfutsiy qarashlarini shogirdlari bilan o'zaro suhbatlarda bayon qilganligi sababli yozma manbalarni qoldirmagan. Uning g'oyalarini shogirdlari va do'stlari yozib borgan. Mazkur hujjatlar asosida keyinchalik «Lun'-yuy» («suhbat va mulohazalar») nomli kitob chop qilingan.

O'sha davrda davlatda o'zaro urushlar kuchayib, ijtimoiy barqarorlik yo'qolgan. Shu bois Konfutsiy jamiyatni mustahkamlashning diniy- axloqiy asoslarini ishlab chiqishga, ijtimoiy barqarorlikka esa qadimgi e'tiqod va an'analarni qayta tiklash bilan erishishga intilgan. Mutafakkir kishilarni osmonga va ajdodlar ruhiga sig'inishning ilgarigi ahamiyatini qayta tiklashga da'vat etgan.

Qadimgi an'analarga ko'ra, dunyo tartibli va o'zaro aloqador abadiy ibtido bo'lib, bir xil qonuniyatlar asosida spiralsimon rivojlanadi. Odam o'zaro aloqador va tartibli olamda o'z o'rnini topishi kerak. Buning uchun u mukammallikka intilishi zarur. Konfutsiy mukammallikka intiluvchi «ideal kishi» to'g'risidagi g'oyani ishlab chiqqan. Olam bilan hamohang yashashga qodir bo'lgan insonni «olijanob er», uning antipodini «past kishi» deb atagan. Ideal kishiga quyidagi beshta sifat xos: hissiylik, burch, bilim, me'yorni bilish hissi va ishonch.

Olijanob inson burch va qonunga itoat etadi. Past kishi «yog'li» joyni egallashga va ko'proq foyda olishga intiladi. Birinchisi o'ziga ikkinchisi odamlarga talabchandir. Olijanob inson to'g'risida uning mayda ishlariga qarab baho berib bo'lmaydi, lekin katta ishlarni unga ishonib topshirish mumkin. Past kishiga katta ishlarni ishonib topshirib bo'lmaydi, uning mayda ishlariga qarab xulosa chiqarsa bo'ladi. Birinchisi odamlar

bilan kelishib yashaydi, lekin ularga taqlid qilmaydi. Past kishi boshqalarga ergashadi, lekin ular bilan kelishib yashay olmaydi. Olijanob insonga xizmat qilish oson, lekin uni xursand qilish qiyin, chunki u zaruratdan shodlanadi. Ikkinchisini xursand qilish oson, lekin unga xizmat qilish qiyin. Olijanob inson insonparvarlik va zarurat sababli o'limga tik boradi, ammo past kishi umrini o'z joniga qasd qilish bilan yakunlaydi. Olijanob inson uch narsadan: Osmon amridan, buyuk insonlardan va aqlli so'zlardan qo'rqadi. Past kishi Osmon amrini bilmaydi va undan qo'rqmaydi, amali katta aqlli odamlardan nafratlanadi, ularning maslahatlariga amal qilmaydi.

Barqaror jamiyat to'g'risidagi g'oyalar ijtimoiy tartibotning asosiy tamoyilini ishlab chiqilishiga asos bo'lgan. Ota otaligini, farzand farzandligini, hukmdor hukmdorligini, xizmatchi xizmatchiligini qilsin, ya'ni har bir kishi o'z vazifasi va huquqini bilsin hamda talab qilingan ishni bajarsin. Jamiyat shu asosda yuqori (boshqaruvchi) va past (mehnatkash) tabaqalarga ajratilgan. Tabaqalar o'rtasidagi tafovut nasl- nasabi, davlati bilan emas, balki bilimi va fazilatlari bilan belgilangan. Bu past tabaqa vakillarining iste'dodi va fazilatlari bilan mansab shohsupasidan imperatorgacha ko'tarilishiga imkon bergan. Xitoy tarixida past tabaqa vakillarining imperator taxtini egallab, o'z sulolasiga asos solgan yoki davlat boshlig'i lavozimiga ko'tarilganligi to'g'risida ko'plab misollar keltirish mumkin.

Konfutsiylikda ajdodlar ruhiga sig'inish marosimlari asosiy o'rinni egallagan va ularning aniq bajarilishiga katta e'tibor berilgan. Marosim orqali har bir kishi koinotning cheksiz oqimida o'z o'rnini topadi, deb hisoblangan.

Diniy etikada «syao» ta'limoti qabul qilingan. Unga ko'ra, har bir farzand ota-onasini hurmat qilishi va doimo ularga sodiq qolishi talab qilinadi. Oqil farzand ota-onasi kim bo'lmasin, ulardan voz kechishga haqli emas. Xitoy diniy rivoyatlarida ota-onasi och qolganda, ularga tanasini kesib, undan taom tayyorlab bergan farzandlar to'g'risida hikoya qilingan.

Ajdodlar ruhiga sig'inish va «syao» ta'limoti oilaviy qadriyatlarining jamiyatda mustahkamlanishiga yordam bergan. Oila jamiyatning negizini tashkil qilgan va shaxs manfaatlaridan oila manfaatlari ustun qo'yilgan. Oilaviy munosabatlarni tashkil etishda hissiyot, tuyg'ular muhim emas. Muhabbat o'tkinchidir. Uning yo'qligi er-xotinning asosiy burchi hisoblanuvchi ko'p farzandli bo'lish va ularga tarbiya berish vazifasining bajarilishiga xalaqit bermasligi lozim.

Ajdodlar ruhiga sig'inishning muhim jihatlaridan biri - kattalarga so'zsiz bo'ysunish. Har qanday katta kishiga, ota-ona, davlat xizmatchisi yoki hukmdorga kichik, xodim yoki fuqaro so'zsiz itoat etishi lozim. Yoshlarni kattaga ko'r-ko'rona bo'ysunishi fozillik hisoblangan.

XITOIY YIL HISOBI.

Qadimgi Xitoyda ham qamariy kalendaridan foydalanilgan. Dastlab Xitoy dehqonlari baxor kirib kelishini Gidra yulduzining chiqishhi bilan boshlangan va xo'jalik yili 4 mavsumga bo'lingan: baxor, yoz, kuz, qish. Keyinchalik 3 ming yillikda vaqtni hisoblashda oy fazasidan foydalanilgan, 1 yil 12 qamariy oydan iborat bo'lgan. Xitoy kalendarida, shuningdek, 13-oy kiritilgan. Har 19 yil davomida 7 yili 13 oydan bo'lgan.

Xitoy astronomlari birinchi bor eramizdan avvalgi VI asrda yangi oy, yozgi Quyosh turishi bilan har 8 yilda emas, balki har 19 yilda yoki 235 qamar oyig'a muvofiq kelishini aniqlaganlar. Shunday qilib, qadimgi xitoyliklarning qamariy-shamsiy kalendari bo'lgan. Keyinchalik taxminan eramizdan avvalgi III asrda Xitoy qishloq aholisining o'z xo'jalik yili bo'lib, 24 mavsumga bo'lingan. Bundan tashqari har bir yil xayvonlar nomi bilan atalib, hisob 60 yillik sikl bo'yicha olib borilgan. Mavsumiy qishloq xo'jaligi kalendari dehqonlarga ekin yig'ish, qishloq xo'jalik ishlarida vaqtni belgilashlarini osonlashtirgan. Bizning davrimizda ham qishloq joylarida axyon-axyonda mavsumiy kalendar ko'llaniladi.

Kalendar yillarini iklim mavsumiga qarab bo'linishi Xitoy kalendarining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Chjan Go zamonida (eramizdan avvalgi IV-III asrlarda) kalendar tizimi aniqlangan, hamda takomillashgan.

Kalendarning keyingi rivojlantirish goyalari Lo Sya–Xun, Den Pin, Sima Syan Kxi, Tszu Chun-chji, Go Shou-Tszin nomlari bilan bog'liq. Eramizdan avvalgi 104 yilda Xitoyda kalendar islohoti o'tkazilib va "Taychu-li" kalendari joriy etilgan. Uni yaratishda taniqli olimlar Lo Sya Xun, Den Pin va Sima Syanlar ishtiroq etgan.

Qamar oyining o'rtacha davomiyligini 29.43/81 sutkaga tengligi qabul qilindi. U Hozirgi ahamiyatdan atigi 24 soniya farq qiladi. Yilning davomiyligi 365,25 sutka o'zgarishsiz qoldi. Bu kalendar ba'zi bir o'zgarishlar bilan 200 yil amal qildi. Xitoy xronologiyasini aniqlash uchun tayanch nuqta bor.

Yilnomalarda quyosh kuyganligi tilga olingan. Hozirgi zamon astronomlarining hisobi bo'yicha, bu voqea eramizdan avvalgi 776 yilda yuz bergan. Sima Syaning "Tarixiy yozishmalari" bizgacha saqlanib qolgan.

Xitoy tarixi bo'yicha adabiyotlar o'rganilganda voqealarni yozib borishning o'ziga xosligiga duch kelinadi. Xitoyda qadimgi davrlarda eramizning boshlariga qadar yagona vaqt hisobi yuritilmagan, ularda aloxida era ham yo'k edi. Tarixiy voqealarni yozib borish yil sikllari va imperatorlar xukmronligi davri va sulolalar bo'yicha olib borilgan.

Xitoy san'ati. Qadimgi Xitoy san'ati tarixi eramizdan avvalgi 4–3 minginchi yillardan eramizning Sh asrigacha bo'lgan davrni o'rganadi, tahlil etadi. Eramizdan avvalgi 4–3 minginchi yillarda Xuanxe daryosi vohasida odamlar dehqonchilik bilan shug'ullana boshladilar, ayrim qabilalar esa o'troq hayot kechira boshladilar. Bu davrda odamlar yashaydigan uylar dumaloq shaklda va ko'proq yerto'la tipida bo'lgan, ular yerni 3–4 metr qazib ishlangan. Asta-sekin yarim yerto'la tipida va nihoyat, yer ustida karkas uslubidagi uylar yuzaga kelgan. Ular to'rtburchak yoki kvadrat shaklida qurila boshlangan. Tepa tomi shox-shabbalar yoki loydan pishirilgan plitalar bilan yopilgan. Ustun-to'sin sistemasi ham shu davrlarda me'morlikda keng qo'llanila boshlangan.

Xitoyning eng qadimgi san'at namunalari bizgacha kulolchilik buyumlari orqali yetib kelgan. Qo'lda, dastgohsiz yasalgan turli xum, ko'za, tovoq, vazalar rangdor naqshlar bilan bezab chiqilgan. Bu kulolchilik buyumlarining yuzasi spiralsimon, to'liqsimon, tursimon chiziqlar bilan bezalgan, soddalashtirilgan odam, xayvon va qushlar rasmi ham ishlangan. (Bunday kulolchilik yodgorliklari Yanshao manzilidan topilgani uchun ham ular «Yanshao madaniyati yodgorligi» deb yuritiladi. Shu madaniyat keyingi Xitoy kulolchiligi rivojida ham muhim o'rinni egalladi. Xitoyning ayrim viloyatlarida kulolchilik buyumlari qora loydan dastgohda ishlangan. Bu buyumlar nafisligi va nisbatlarining qat'iyiligi bilan ajralib turadi. Bunday idishlar Lunshan manzilidan topilgani uchun «Lunshan madaniyati yodgorliklari» deb yuritiladi.

Eramizdan avvalgi 4–3 minginchi yillarda Xitoyda loydan ishlanib, olovda toblab pishirilgan odam haykallari (terrakotalar), odam boshini eslatuvchi ko'zalar, toshdan ishlangan turli badiiy buyum va haykallar uchraydi. Bular qadimgi Xitoy madaniyatining boy va rang-barang bo'lganligidan dalolat beradi.

Hunarmandchilik. Boy-zodagonlar, qahramonlarga atab qurilgan maqbaralar serhasham bo'lgan. Maqbaralar minoralar (pilon) bilan boshlanib, ularga bezak berilgan, old tomoniga haykallar o'rnatilgan. Maqbaraning yer osti qismi ham pishiq g'isht yoki tosh bilan pardoizlangan.

Sag'anaga ko'milgan marhumning buyumlari ham qo'yilgan. Ayrim sag'analarda juda ko'plab haykaltaroshlik va rassomlik namunalari mavjud bo'lgan. Maqbaralardan loydan ishlab pishirilgan va bo'yalgan ko'p qavatli uy va minoralarning modellari ham topilgan. Dastlabki san'at asarlari birmuncha sodda, qo'pol ishlangan bo'lsa ham, haqiqiy hayot to'g'risida tasavvur bera oladi.

Loyan yaqinidagi Shandun va Sichuan maqbaralari, ayniqsa, tasviriy san'atga boy. Shandundagi zodagon U Lyan-tsi maqbarasining releflarida afsonaviy qahramonlar, podsholar orasidagi janglar, ov va bazm paytlari, farzandlarning o'z ota-onalariga muxabbati va shunga o'xshash voqealar tasvirlangan. Bo'rtma tasvirlar friz..... tarzida bo'lib, ular ustma-ust joylashtirilgan. Har bir voqeaga tushuntirish yozuvi berilgan. Kompozitsiyada xudo va podsholar tasviri oddiy ommadan kattaroq qilib ishlangan.

Sichuandagi maqbara releflari birmuncha dinamik xarakterga ega bo'lib, u yerda ov manzaralari, yig'im-terim ko'rinishlari tasvirlangan. Xan davri maqbaralarida ko'plab devoriy surat namunalari uchraydi. Xan davrida portret rassomligi ham rivojlandi. Maqbara va saroy devorlariga portretlar ishlash keng odat tusiga kirdi. Devorga ishlangan shunday portretlardan biri Loyan yaqinidagi Xan davri maqbarasida saqlanib qolgan. Shunday portret ishlashda tanilgan rassomlardan biri eramizdan avvalgi I asr oxirlarida yashab ijod etgan Mao-Yan-shou bo'lgan. U odamlarni o'ziga juda o'xshatishga, hatto ideallashtirishga usta bo'lgan. Uning portretlaridan tasvirlanuvchi odamning yoshi va hatto, xulqini bilish mumkin bo'lgan. Maqbaralardan topilgan terrakotalar ham diqqatga sazovor. Ular o'zining ifodali va hayotiy ishlanganligi bilan qatni tortadi. Xan davrida amaliy-dekorativ san'atda ham jiddiy o'zgarish yuz berdi, buyumlarning foydali tomoniga e'tibor ortdi, bezak va relefli tasvirlar kamaydi.

Bronzadan ishlangan jimjimador ko'zgular ham keng tarqalib, bu ko'zgular inkrustatsiya qilingan, oltin, kumush va qimmatbaxo toshlar bilan bezatilgan. Bu davrda bronzadan ishlangan buyumlar, idishlar avvalgi davrga nisbatan yanada nafis va jimjimador bo'lgan, ayniksa inkrustatsiya uslubi keng qo'llanilgan. Turli xildagi amaliy buyumlar–idishlar, muzika asboblari, lak bilan bezatilgan buyumlar ham boylar xonadonini bezagan.

Kulolchilikda rang keng qo'llanila bordi. Badiiy kashtachilik va tuqimachilik Fapbiy Osiyo va Yevropa mamlakatlarida yuqori baholandi. Nefritdan ishlangan turli buyum va haykalchalar ko'pchilikka manzur bo'ldi.

Buyuk xitoy devori. Buyuk Xitoy devori haqida eshitmagan kishi bo'lmasa kerak. Uni chet elliklar uchun ham, xitoyliklar uhun ham mamlakat ramziga aylangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Devorning ta'mirlangan qismiga kirishda Mao Tsze Dun yozdirgan xatni o'qish mumkin: "Buyuk Xitoy Devorida bo'lmading-mi, demak sen haqiqiy xitoylik emassan". O'ylab qarasangiz haqiqatdan ham shundayligiga amin bo'lasiz.

Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, Xitoyning butun tarixi mobaynida uchta asosiy devori bo'lganligi oydinlashadi. Ularning har biri 10 000 m (5 000 km) uzunlikda bo'lgan. Xitoy an'analariga ko'ra 10 000 raqami alohida mazmunga ega bo'lgan.

Devor umumiy hisobda 2000 yil mobaynida qurilgan (eramizgacha III asrdan to eramizning XVII asrigacha). Birinchi devor "Xitoy zaminini birlashtiruvchi" deb ataluvchi imperator Tsin Shi Xuan nomi bilan bog'liq. Uning qurilishiga 500 ming odam jalb qilingan. Minglab olimlar ham devor qurilishiga o'z hissalarini qo'shishgan. Devor o'z vaqtida muhim harbiy-strategik ahamiyatga ega bo'lgan.

Qurilishga jalb qilinganlarning ahvoli nihoyatda og'ir bo'lgan. Holsizlikdan yoki biror boshqa sabab bilan o'lganlar to'g'ridan-to'g'ri devorga "qalab" ketaverilgan. Shuning uchun bu "Buyuk qurilish" xalq tilida "Qayg'u devori" deb ham nom olgan.

Ikkinchi devor Tsin Shi Xuan tomonidan qurilgan devorni buzib, xitoyliklar ustiga muntazam hujum uyushtirib turgan xunlardan himoya qilish uchun qurilgan.

Uchinchi devor qurilishida 1 millionga yaqin odam ishtirok etgan. Qurilishda har bir minora ikki tomondagi minoradan ko'rinib turishiga katta ahamiyat berilgan. Bu turli xabarlarini tutun yoki nog'ora ovozi yordamida bir-biriga yetkazish uchun kerak bo'lgan. Bundan tashqari xabarchi markaziy shaharga axborotni o'z vaqtida yetkazishi uchun otlarni almashtiruvchi tayanch nuqtalari qurilgan.

Pekin atrofida devorning bir qancha qismi sayyohlar uchun ochib qo'yilgan. Bu yerda ta'mirlanmagan Simatay qismi ancha qiziqarli. Devorning ta'mirlangan, ya'ni bo'yalgan qismlarini ko'rib, uni ming yillardan beri yashab kelayotganligiga ishingingiz kelmaydi. Simatay qismida esa o'zingizni huddi mo'jizaga duch kelganday his qilasiz.

Xitoy adabiyoti. Xitoy adabiyoti jahonda eng qad. adabiyotlardan biri bo'lib, uch ming yillik an'alarga ega. Qadimgi Xitoy adabiyotining birinchi yirik she'riy asari "Shitszin" ("Qo'shikdar kitobi", mil. av. 11—6-a.lar) xalq qo'shiqlari va diniy marosim madhiyalari majmuasidan iborat. Mil. av. 1-ming yillikka mansub badiiy nasr falsafa, tarix, geografiya va boshqaga doir asarlar bilan uzviy bog'liq ("Shan shu" — "Tarixiy rivoyatlar kitobi" va b.). Sima Syanning (mil. av. 1-a.) "Shi szi" ("Tarixiy xotiralar") kitobi Xan davri (mil. av. 206 — mil. 220-y.lar) nasrining yirik yodgorligi hisoblanadi. She'riyatning muhim qismini tashkil etgan lirik va satirik xalq qo'shiqlari (yuefu)da xalq hayoti o'z ifodasini topgan. 4-a. oxiri — 5-a. boshlarida yashagan yirik novator shoir Tao Yuanmin (365—427) she'riyati hayot haqidagi falsafiy mushohadalardan iborat bo'ldi. Mamlakatni Tan sulolasi (618— 907) birlashtirgach, adabiyot rivoji uchun qulay sharoit yaratildi. Xuddi o'sha davrda ven yan — xitoy adabiy tili uzilkesil shakllandi.

7—10-a.larda Chen Szian, Van Vey she'rlari mashhur bo'ldi. Adabiyotning yanada taraqqiy etishida Li Bo, Du Fu va Bo Szyuyi kabi shoirlarning ta'siri katta bo'ldi. 8—9-a.larda novella janrida yuksak yutuqlarga erishildi (Yuan Chjen, Bo Sinszyan, Li Gunszo), 10—13-a.larda shoirlardan Van Anshi, Su Shi, Lyu Yun, Lu Yu, shoira Li Sinchjao mashhur bo'lgan. Ouyan Syu tarixiy va falsafiy mavzuda asarlar yaratdi.

Mo'g'ullarning Yuan sulolasi hukmronligi davri (1280—1368)da shaharlar rivoj topdi. 13-a.da mamlakat shim. da qahramonlik va maishiy mavzularda musiqiy drama janri vujudga keldi. 14-a.da epopeyaronan janrining shakllanishi adabiyotda muhim voqea bo'ldi. 16-a. oxirlaridan nasr yangi boskichga ko'tarildi, tarixiyfantastik, ijtimoiymaishiy romanlar yaratildi.

Xitoyni manjurlar bosib olgan (1644)dan keyin muxolif kayfiyatdagi shoirlar paydo bo'ldi, ma'rifatparvarlik ruhi avj oldi. Klassik roman cho'qqisi bo'lib maydonga kelgan Sao Syuetsin (taxm. 1715—62)ning "Qizil ko'shkdagi uyqu" romanida zodagonlarning axloqiy va iqtisodiy tushkunligi ifodalandi.

Yangi davr adabiyoti (19-a. o'rtalari — 1917) manjurXitoy zodagonlari, imperialistik davlatlar zulmiga qarshi ozodlik harakatini, jamiyat tushkunligini aks ettirdi. G'arb madaniyati bilan birinchi tanishuv boshlandi. 1900-y.larning boshlaridagi inqilobiy ko'tarilish ko'pgina adiblar ijodida o'z ifodasini topdi.

1919 y.da boshlangan "4 may" ozodlik harakati davridan e'tiboran eng yangi adabiyot vujudga keldi. Bu adabiyotning idk yirik namoyandasi Lu Sin (1881 — 1936) asarlarida oddiy kishilar Xitoy adabiyoti tarixida birinchi marta asar qahramonlari qilib qalamga olindi. 1922 y.da "Ijod" guruhiga uyushgan adiblar romantik ruxda asarlar yaratdilar. 20-y.lar boshlaridan she'riyatdagi so'zlashuv tiliga asoslangan yangi shakl klassik she'riyat shakllarini siqib chiqardi. Xitoy xalqining yapon bosqinchilarga qarshi milliy ozodlik urushi (1937) davrida vatanparvarlik ruhida yozilgan kichik hajmdagi asarlar keng yoyildi. Yaponiya tormor etilgach (1945), adabiyot mamlakatni demokratik rivojlantirish uchun kurashni avj oldirdi. Xitoy Kompartiyasi rahbarligida xalqning ozodlik uchun kurashiga yordam beradigan inqilobiy adabiyot rivojlana boshladi. 1949 y. XXR tashkil kilinishi sotsialistik qurilishni aks ettiradigan, yangi kishini tarbiyalashga xizmat qiladigan yangi adabiyot rivojiga imkon yaratdi. Chjao Shuli (1906—70)ning "Sanlivan qishlog'i", Chjou Libo (1908—79)ning "Po'lat oqim" roman larida ishchi va dehqonlarning yangi hayoti va mehnati ifodalandi. Tarixiyinqilobiy syujetlarda romanlar (Yan Moning "Yoshlik qo'shig'i") yaratildi. 50-y.larning boshlarida tinchlik va xalklar do'stligi mavzularida, ayniqsa, she'riyatda muhim asarlar ijod qilindi. Lekin 1958 y.da "inkilobiy romantizm bilan inqilobiy realizmning uyg'unligi" Xitoy adabiyotida birdan bir ijodiy metod deb e'lon qilindi. Amalda esa ijod axlidan xaspo'shlab aks ettirish, voqealarni ideallashtirish talab qilindi. 60-y.lar o'rtalaridan "madaniy inqilob" boshlanishi munosabati bilan yangi badiiy asarlar yaratilmay qo'ydi, tarjima asarlarini nashr etish to'xtatildi, ko'pgina adabiybadiiy jur.lar yopildi. Xitoy yozuvchilari uyushmasi (1953 y.dan tashkil qilingan)ning faoliyati ham, asosan, to'xtab qoldi. 1970y.larning boshlaridan adabiy hayotda bir oz jonlanish yuz berdi. "Madaniy inqilob" yillarida quvg'inga uchragan yozuvchi va shoirlarning katta guruhi oklandi, ularning faoliyati qayta tiklandi. Ular tomonidan yozilgan asarlar nashrdan chikarildi. Xalqning ongini bozor munosabatlariga moslashtirish, o'tgan davrga tanqidiy yondoshish, milliylikni saqlab qolish kabi masalalar yangi adabiyotning asosiy g'oyasiga aylandi. Jahon adabiyotining xitoy adabiyotiga bo'lgan ta'siri kuchaydi.

1977 y.dan pyesa, she'r, nasriy va publitsistik asarlar paydo bo'la boshladi. Bu yillarda yaratilgan asarlarda o'n yillik tartibsizliklar davridagi turmush ochib beriddi. Nasr, ayniqsa, hikoya janri jonlandi. Lyu Sinuning "Sinf rahbari", Van Menning "Sartarosh hikoyasi", Ju Chjitszyuanning "Kutilmagan voqea" kabi hikoyalari shuhrat qozondi.

XULOSA

Qadimgi Xitoy haqida xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, qadimgi Sharq madaniyati, davlatchilik tarixini u davlatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki qadimgi Xitoy alohida ahamiyat kasb etgan o'ziga xos madaniyatni o'zida mujassam etgan.

Qadimgi Xitoy davri dastlabki davlat birlashmalari bo'lgan o'sha qadimgi Shan davlati, undan so'ng Chjou davlati, Sin sulolasi va Xan sulolalari davlati yashagan davrlarni o'z ichiga oladi ya'ni mil. avv uchinchi mingyillik o'rtalaridan boshlab to milodiy 220-yilgacha, Xan davlati uchta davlatga bo'lib ketgungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu katta davr ichida Xitoyda ancha o'zgarishlar sodir bo'lgan. Uning sivilizatsiyasi ham boshqa Sharq davlatlari singari daryo bo'yida boshlangan. Daryodan oqib keluvchi serunum tuproq sun'iy sug'orma dehqonchilik uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Rivojlangan sun'iy sug'orma dehqonchilik keyinchalik o'ziga xos madaniyat yutuqlariga erishishga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu davrda xitoyliklar dunyo ahamiyatiga molik kashfiyotlar qilishgan. Bularga misol tariqasida mil. avv 5 asrda kashf qilingan ipak, mil. avv 1 asrda qog'ozni, yer qimirlashini avvaldan biluvchi seysmograf, dunyo tomonlarini aniqlab beruvchi kompas(u har doim janubni ko'rsatib turgan), iyerogliflardan iborat yozuv (keyinchlik bu yozuv koreys, yapon hamda vetnam yozuvlariga asos bo'lib xizmat qilgan)ni va boshqa ixtirolarni keltirishimiz mumkin.

Xan sulolasini buyuk imperatori U Di (mil. avv 140-87 yy) hukumronligi davrida nafaqat Sharqda balki butun Osiyo va Yevropada katta ahamiyatga ega bo'lgan Buyuk ipak yo'lini ochilishi savdo-sotiq, madaniy aloqalarni almashishiga xizmat qilgan. Buyuk ipak yo'li orqali sharqiy Osiyodagi Sariq dengizi bo'yidagi davlatlar Xitoy hududidan o'tib, sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, Eron, Old Osiyo, Kichik Osiyo hududidan o'tib Yevropa hududlarigacha borgan. Uni yo'nalishidagi davlatlar ancha rivojlangan, bir-birlari bilan doimo aloqalar qilib turishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. — Т.: Маънавият, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. – Toshkent, Sharq, 2000-2004.
3. Sagdullayev A. Qadimgi dunyo tarixi. – Toshkent: Sharq, 2008.

Internet ma'lumotlari:

- www.kitob.uz
- www.ziyonet.com
- www.tarix.uz
- www.arxiv.uz

НамДУ Ижтимоий-иқтисодий фанлар
факультети Архившунослик йўналиши 205-
гуруҳ талабаси Мирзаабдуллаева
Мохиданинг “Жаҳон тарихи” фанидан ёзган
мустақил ишига Тарих фанлари кафедраси
катта ўқитувчиси Болтабоев Ё. томонидан
ёзилган

ИЧКИ ТАҚРИЗ

Архившунослик йўналиши 205-гуруҳ талабаси Мирзаабдуллаева Моҳиданинг Архившунослик кафедраси ўқитувчиси Тўхтабаев А. раҳбарлигида “Жаҳон тарихи” фанидан “Қадимги Хитой” мавзусида ёзилган мустақил ишида мавзунини илмий ёритган, аниқ далиллар асосида мавзу мазмун-моҳиятини очиқ берилган. Айниқса, Қадимги Хитой маданиятига катта эътибор қаратиши, мисоллар ёрдамида ёритилиши мустақил иш мавзусининг илмий жиҳатдан очиқ берилганлигини кўриш мумкин.

Мустақил ишда айрим камчиликлар мавжуд бўлиб, фойдаланилган адабиётларда кўпроқ интернет маълумотларига таянилган, бу эса мустақил ишнинг илмий савиясига салбий таъсир ўтказмайди.

Мен 205-гуруҳ талабаси Мирзаабдуллаева Моҳиданинг Архившунослик кафедраси ўқитувчиси Тўхтабаев А. раҳбарлигида “Жаҳон тарихи” фанидан “Қадимги Хитой” мавзусида ёзилган мустақил ишни ижобий деб баҳолаб, Ziyonet тармоғига жойлаш мақсадга мувофиқ деб биламан.

Тарих фанлари кафедраси катта ўқитувчиси:

Болтабоев Ё.

НамДУ Ижтимоий-иқтисодий фанлар
факультети Архившунослик йўналиши 205-
гуруҳ талабаси Мирзаабдуллаева
Мохиданинг “Жаҳон тарихи” фанидан ёзган
мустақил ишига Ижтимоий маданий фаолият
кафедраси катта ўқитувчиси Мансуров У.
томонидан ёзилган

ТАШҚИ ТАҚРИЗ

Архившунослик йўналиши 205-гуруҳ талабаси Мирзаабдуллаева Моҳиданинг Архившунослик кафедраси ўқитувчиси Тўхтабаев А. раҳбарлигида “Жаҳон тарихи” фанидан “Қадимги Хитой” мавзусида ёзилган муостақил иш қадимги Хитойда бўлиб ўтган сиёсий-ижтимоий, маданий воқеалар ҳақида батафсил маълумот берилганлигини кўриш мумкин. Мавзуни тарихий мисоллар ёрдамида илмий жиҳатдан очиқ берилганлигини кўриш мумкин.

Муостақил ишда айрим камчиликлар кузатилиб, унда камроқ адабиётлардан фойдаланилганлиги, ҳаволар(сноска) камроқ қўйилган бу эса муостақил ишнинг илмий савиясига салбий таъсир ўтказмайди.

Мен 205-гуруҳ талабаси Мирзаабдуллаева Моҳиданинг Архившунослик кафедраси ўқитувчиси Тўхтабаев А. раҳбарлигида “Жаҳон тарихи” фанидан “Қадимги Хитой” мавзусида ёзилган муостақил ишни ижобий деб баҳолаб, Ziyonet тармоғига жойлаш мақсадга мувофиқ деб биламан.

Ижтимоий маданий фаолият кафедраси катта ўқитувчиси:

У.Мансуров